

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘zbek filologiyasi yo‘nalishi

447-guruh bitiruvchisi Dilshoda (Tilavoldiyeva) Boltaboyevaning

**“PIRIMQUL QODIROVNING “ONA LOCHIN
VIDOSI” ROMANIDA AYOLLAR OBRAZI”
mavzusidagi**

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Z.RAHIMOV,
filologiya fanlari nomzodi

Farg‘ona – 2013

Bitiruv-malakaviy ish kafedraning 2013 yil_____dagi
____- yigʻilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

A.Sabirdinov,
Filologiya fanlari doktori.

Taqrizchi:

G.Qirqʻizova,
FarDU qoshidagi 3-AL oʻqituvchisi

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-bob. O‘zbek adabiyotida ayollar obrazi.....	8
2-bob. Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida Gavharshodbegim obrazi talqini.	
1. Pirimqul Qodirovning ayol obrazini yaratish mahorati.....	15
2. Tarixiy Gavharshodbegimning badiiy obraz sifatidagi talqini.....	18
Xulosa.....	37
Adabiyotlar ro‘yxati.....	43

K I R I SH

Istiqlol tufayli Vatan, xalq, ajdodlar, o‘tmish, qadriyat va meros haqida baralla so‘zlash imkoniyati tug‘ildi. Nasrga tarixiy shaxslarning kirib kelib ijodkorlarning bu boradagi ijodiy imkoniyatlariga yo‘l ochildi.

Mustabid tuzum hamisha bizning tariximizga qo‘rquv bilan qaragan. O‘z zamonasida katta kuchga ega bo‘lgan sohibqiron Amir Temur, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning shaxsiga iloji boricha, soya solishga urinilgan. Ulug‘ ajdodlarni unutsin, bugungi qaramlik, qullik ruhi bilan yashasin, degan aqida hukmron edi. Vatanimiz mustaqil bo‘lgach, “Tarixiy , xotirasiz kelajak yo‘q”¹ degan shior shuurimiz, faoliyatimizga singa boshladi.

Bugungi adabiyot hayot qadar rang-barang, murakkabdir. Unda yuz yillardan so‘ng qayta mustaqillikka erishgach, ijodiy erkinlik sharoitida tarixiy diniy mavzuda, imon va e‘tiqod masalarida ham badiiy mushohada yuritish imkoni tug‘ildi.

Ijodkor Vatan taqdiri, xalq baxt-saodati uchun qayg‘uradi. O‘zbek xalqi ne-ne talofatlarni boshidan kechirmadi deysiz. Insoniyat qalbida hamisha ruhiy ozuqaga ehtiyoj seziladi. U o‘z qalbini tiklash, tafakkurini kamolotga yetkazish uchun kuch –quvvat manbalarini izlaydi. Tarix, xotira ana shunday qudratli manba sarchashmasi hisoblanadi. Kishi faqat ma’lumot olish uchungina tarixni o‘qib – o‘rganmaydi. Bu unga yashagan umrni xayolda, tasavvurda qayta yashash, ibrat olish yoki xulosalar chiqarish uchun zarur. lekin har bir davr hukmron siyosatining tarixga o‘z qarashlari bor.

¹ Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q . Muloqot, 1998, 5 - son, 1-bet.

Yaxshi bilamizki, o'sha mash'um siyosat — tarixga, tarixiy shaxslarga tor sinfiylik nuqtai nazaridan qarash uzoq vaqt davom etdi. Tarix va tarixiy shaxslar haqidagi haqiqatni aytish, ifodalash yo'liga g'ov bo'lib keldi. Hatto Qodiriydek haqgo'y adib ham tarixiy romanlarida, jumladan, «Mehrobdan chayon»da Xudoyorxonni asosan qora bo'yoqlarda ko'rsatishga majbur bo'lgan, uning ayrim ijobiy xislatlarini, tarixdagi xizmatlarini esa aylanma yo'llar, qistirmalar orqali ehtiyotkorlik bilan ifoda etgan. Umuman, bizda saroy a'yonlari, shohlar, amiru beklarga nuqul dushman timsoli deb qaralgan, ular faqat qoralashga munosib ko'rilgan. Adabiyotda shoh Ulug'bekni ko'proq olimligi, vazir Navoiyning buyuk shoirligi, bek Temur Malik bilan shahzoda Jaloliddinning bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashi arang qutqarib qolgan. Davlat arboblarning xayrli ishlari haqida ozgina bo'lsin so'z ochish «ularni ideallashtirish» deb baholanavergan. S.Borodinning «Samarqand osmonida yulduzlar» asarini, unda Temur siymosining biryoqlama talqinini mustasno etganda, Vatan tarixida muhim o'rin tutgan yirik davlat arboblarning hayoti, tarixiy xizmaglarini xolis ko'rsatib beradigan badiiy asarlar, ochig'i, bizda yo'q edi.

Prezidentimiz I.A.Karimov 1994-yil 22-sentabrda minbardan turib quyidagi savollarni o'rta tashladi:

“– O'zingiz o'ylab ko'ringlar, aziz do'stlar, mustabid tuzum mustamlakachilik davrida biz kim edik?²

– Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo'lida edi?

– Ka'ba deb qayerga sig'inar edik? Har tong"Assalom!" degan ohanglar ostida kimlarga qulluq qilib uyg'onardik?

– Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hoja Naqshbandlarning muqaddas xoklariga e'tibor bormidi?

² Karimov I.Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch, Toshkent, "Ma'naviyat", 2009, 5- bet.

Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug‘ bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi?

– Xo‘sh, o‘zimiz-chi? O‘zimiz o‘zligimizni bilarmidik?

Qanday mo‘‘tabar zamin, ulug‘ ajdodlarimizning o‘lmas meroslari bilan oziqlangan elning farzandlari ekanimizni anglarmidik?...

– Go‘yo milliy iftixor bo‘lmish paxta, haqiqatda milliy g‘urur o‘rniga bo‘yinturuq bo‘lib, xalqimizni yalangoyoq qilishdan, boshimizga azob-uqubat, ta’na-malomatdan boshqa nima keltirardi?...³

Adabiyot tarixga qayta umr berguvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu tinch jamiyatda tarixga qiziqish uyg‘otish, xalqning o‘zligini anglatishga urinish mas’uliyatini ham adabiyot birinchilardan bo‘lib o‘z zimmmasiga oldi.

Shuni nazarda tutganda, Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlari milliy adabiyotimizda muhim yangilik, tarix haqiqatiga sadoqat sifatida baholanishga loyiq. Ijodiy faoliyatining asosini yurtimiz, ajdodlarimiz tarixiga bag‘ishlagan yozuvchilar qatorida Pirimqul Qodirovning o‘z o‘rni bor. Adabiy tanqid va adabiyotshunosligimizda o‘zbek nasrining yirik namoyandalaridan biri Pirimqul Qodirov ijodi muayyan darajada o‘rganilgan.⁴ Adib ijodi bir necha dissertatsiyalar uchun adabiy manba bo‘lib xizmat qilgan.⁵ Shuningdek, ayrim qomuslar va darsliklarda yozuvchining hayoti va ijodiga muayyan o‘rin ajratilgan⁶.

Ko‘rinadiki, mavjud manbalar taqriz, adabiy portret, muayyan muammolar bilan bog‘liq monografik izlanishlardan iborat. Jumladan, N.Karimov kuzatishlari ko‘p jildlik Milliy qomus talablaridan kelib chiqib,

³ Go‘zal bir dunyo, Toshkent, “Yozuvchi” nashriyoti, 1994 yil, 110- bet.

⁴ Shermuhammedov Pirimqul Qodirov (Adabiy portret). Toshkent, 1983; Normatov U. Hayot bilan hamnafaslik; Izlanish quvonchi va tashvishlari Yetuklik (Maqolalar). Toshkent, 1982.196-226, 314-342 betlar, Nosirov O‘.Obrazlarda uslub jilolari. Toshkent, 1991, Karimova Yu. Erk jozibassi. Jizzax, 2004.

⁵ Boboeva N. Pirimqul Qodirovning xarakter yaratish mahorati. ND. Toshkent, 1972, Mirkasimova M.Janrovo-stilevie osobennosti uzbekskogo romana 70-80 godov (romani A.Yakubova i Pirimkul Qadirova)AKD. Tashkent, 1986, Jalmatova Z.Urbanistik asarlarda mushtaraklik va o‘ziga xoslik (Pirimqul Qodirov “Olmos kamar” romanining qiyosiy tahlili misolida). ND. Toshkent., 1999, Karimova .Yu. Pirimqul Qodirov qissalarida ma’naviy axloqiy muammolarning badiiy talqini. ND. Toshkent,2005.

⁶Qarang; O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi.11-tom. Toshkent, 2005. 39-40 betlar, XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. 1999.424-439- betlar va b.

ixcham shaklda bitilgan bo'lsa, U.Normatov izlanishlarida adibning butun hayoti va ijodini davr bilan bog'lab batafsil etishga intilish kuzatiladi. N.Boboyeva yozuvchining xarakter yaratish mahoratiga, M.Mirqosimova esa Pirimqul Qodirov romanlarining shakliy-uslubiy o'ziga xosligiga diqqat qaratadi. Z.Jalmatova "Olmos kamar" romanini Yu.Trifonovning "Almashish", V.Rasputinning "Matyora bilan xayrlashuv", I.Shamyakinning "Atlantlar va kariatidalar" singari asarlari bilan qiyoslash asnosida milliylik va qahramon ruhiy dunyosiga urbanizatsiya jarayonlarining ta'siri masalasini o'rganadi. Yu. Karimova asosiy diqqatini adib qissalaridagi ma'naviy-axloqiy muammolar tahliliga qaratadi.⁷

O'zbek adabiyotida temuriylar davri haqida yozilgan asarlar ichida reallik xususiyatlari bilan Oybekning "Navoiy" romani e'tirof etilsa, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" "Avlodlar dovoni" asarlari ushbu an'ananing o'ziga xos davomi sanaladi. Ammo ushbu asarlar sobiq sho'rolarning mafkuraviy tazyiqlari ostida emin-erkin tarixiy haqiqatni oshkor etib yozish imkoniyati mavjud bo'lmagan muhitda imkon qadar reallikka intilib yozilganini inobatga olinsa, mustaqillik davridan so'ng tariximizni ro'y-rost tasvirlash imkoniyatidan paydo bo'lgan "Ona lochin vidosi" asari tarixiy faktlarni badiiy tasvirlash jihatlari bilan farqlanadi.

"Ona lochin vidosi" romani temuriylar davrining eng muhim hodisalari yuz bergan davr haqidagi asardir. Asarda ijodkor kitobxon e'tiborini asosan temuriyzodalarning ayollariga qaratadi. Romandagi sodir bo'layotgan voqealarning tub mohiyati ayollarning temuriylar saltanati vakillariga ma'naviy ta'sirlari nuqtai nazaridan qarab badiiy tahlilga tortiladi. Asarning bosh qahramoni Gavharshodbegimning shodligu iztiroblari bayoni asosida boshqa temuriy malikalar obrazlari ham o'z tasvirini topgan. Ular ichida

⁷ Yoqubov I.. Pirimqul Qodirov romanlari falsafiy-estetik kontseptsiyasi.O'zbek tili va adabiyoti. 2009 1-son. 25-bet.

Bibixonimning, Shodimulk xonimning, Poyanda Sulton begimning epizodik obrazlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asarning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda tasvirlanayotgan tarixiy davr va sharoitda temuriyzodalarning ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashiga kuchli ta'sir etuvchi asosiy kuch sifatida ayollar badiiy tasvir doirasida gavdalanadi va ma'lum darajada temuriylarning inqiroziga oid badiiy xulosa ham ayollar obrazlari vositasida bayon etiladi.

Demak, asarda ayollar obrazi badiiy voqelikning rivojida o'ziga xos o'ringa ega. Bu esa "Ona lochin vidosi" romanidagi ayollar obrazini tadqiq etish dolzarbligi yuzaga keladi. Shu jihatlarini hisobga olgan holda ushbu bitiruv- malakaviy ishimizni shu masalani tadqiq etishga bag'ishladik.

Ishning asosiy qismi ikki bobdan iborat.

Birinchi bob "O'zbek adabiyotida ayollar obrazi" deb nomlanib, ikki faslni o'z ichiga oladi. Fasllardan birinchisi "Pirimqul Qodirovning o'zbek nasridagi o'rni" da adibning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni va ijodiy faoliyati, ijodiy yo'sinining xususiyatlari haqida so'z boradi.

2-fasl "O'zbek nasrida ayollar obrazining ifodasi" milliy adabiyotimizda ayol obrazining ifodalanishining genezisi va taraqqiyoti xususida fikr bayon etiladi.

Ishning asosiy mohiyatini ifodalovchi 2-bob "Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanida Gavharshodbegim obrazi talqini" ham ikki fasldan iborat. Undagi birinchi fasl "Pirimqul Qodirovning ayol obrazini yaratish mahorati" deb nomlanib, adibning bu xususdagi ijodiy mahorati haqida so'z boradi. Ikki fasl, "Tarixiy Gavharshodbegimning badiiy obraz sifatidagi talqini"da Gavharshodbegimning temuriyzodalarning toju taxt talshishi va uning oqibatlaridan chekkan aziyatlarining ruhiy manzaralari tahlilga tortiladi. Badiiy g'oyani yuza chiqishidagi Gavharshodbegim obrazinnig ahamiyati yoritib beriladi.

Ish xulosalanadi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

BIRINCHI BOB.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOLLAR OBRAZI

Ayol obrazi xalq og‘zaki ijodining qadimiy davrlariga borib taqaladi. Bu ayniqsa diniy hikoyatlarda yorqinroq namoyon bo‘lgan. Ulardan eng qadimiysi Momo Havo haqidadir. Momo Havoning shaytonning hiylasiga kirib, Odam Atoga taqiqlangan mevani yegizib qo‘yishi bilan bog‘liq bo‘lgan bu hikoyatda ayol obrazining o‘ziga xosligi keltiriladi.

Halq og‘zaki ijodi bo‘lmish ertaklarda ham ayol obrazining turli jihatlarini bilan ko‘ramiz.

Xalq og‘zaki ijodining gulchambari bo‘lgan dostonlarda ayollar obrazi alohida ajralib turadi. “Alpomish” dostonidagi Barchinoy obrazi o‘zida yoriga vafo va sadoqat timsolida gavdalansa, Qaldirg‘och o‘zining tug‘ishgan akasiga– qondoshiga nisbatan cheksiz mehr va sadoqat ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Dostonda Oybarchin obrazi darhol tinglovchi (kitobxon) mehrini qozonadi.

Mumtoz adabiyotimizda ayol obrazi asarning asosiy qahramoni darajasiga ko‘tarilganlarini ko‘plab uchratish mumkin. Ular ichida ayol obrazining mukammalligi va asardagi ijodkorning badiiy g‘oyasini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etishini Hazrat Mir Alisher Navoiyning “Hamsa” sidagi dostonlarda kuzatamiz.

“Hayrat ul abror” dostonida keltirilgan 20 hikoyatning deyarli ko‘p qismida ayol obraziga duch kelamiz.

Navoiyning mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotidagi katta hissasini uning ayol obrazlarini yetuk xarakter darajasiga ko‘tara olganligida ham ko‘rinadi. Sharq adabiyotining ulkan anhanasiga aylangan xamsanavislikda ayol obrazi yetuk qahramonlari sirasiga kiritiladi.

Masalan, “Farhod va Shirin” dostonida ilk marotaba Navoiy tomonidan ayol obrazi badiiy gʻoyani tadrijida muhim ahamiyat kasb etuvchi obraz darajasida mukammal tasvirlandi. Dostonda ayniqsa, Mehribonu obrazi zukko va oqila ayol sifatida katta badiiy ahamiyatga ega eanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, asardagi Shirin obrazi ham boshqa shu turkumdagi dostonlardan oʻzining oqila va vafodor, chin muhabbat egasi ekanligi fazilatlari bilan farqlanadi.

“Layli va Maenun”dagi Layli obrazi boshqa “Layli”lardan Navoiy talqinida tubdan farqli, ijobiy fazilatlari bilan keskin farqlanib turadi.

“Sabʼai sayyor” dostonidagi Dilorom obrazi ayollarga hos boʻlgan butun malohatu tarovatlari bilan izohlanishi va ayol kishining oqilligini albatta gʻalaba qozonishi badiiy dallillaydi.

“Saddi Iskandariy” dostonida Alisher Navoiy ikki ayol obrazini yaratadiki, bulardan eng yorqini “Loʻbati Chin” dir. Loʻbati Chinning mardonavor jangchiligi, dushmanning zoʻr pahlavoni bilan yakkama-yakka olishuvda yengib chiqishi, Iskandarga ayolga xos boʻlgan pokiza muhabbati zoʻr mahorat bilan qalamga olinadi.

Shuningdek, mumtoz adabiyotimizda bir necha ayollarning yaratilgan yorqin obrazlari mavjuddir. Ulardan yana Durbekning “Gul va Navroʻz” dostonidagi Navroʻz obrazini ham keltirish mumkin. “Yusuf va Zulayho”dagi Zulayoxo obrazlari oʻziga xos badiiy qimati bilan ajralib turadi.

Oʻzbek adabiyotida yaratilgan asarlarda ayol obrazi oʻzining boshqa qirralari bilan namoyon boʻla boshladi. Endi bu asarlarda ayollarning bevosita jamiyatdagi faol kurashchi, ijtimoiy hayotning yorqin namoyandasi sifatidagi badiiy talqinini kuzatamiz.

Ayollar jadallik bilan oʻzgarib borayotgan ijtimoiy turmushning faol ishtirokchisi sifatida jamiyatdagi adolat, oilaviy baxt uchun kurashchi sifatida talqin etila boshladiki, bu narsa butun jamiyatdagi kishilik ongining taraqqiyoti bilan bogʻliq sifatida badiiy xulosalanishiga olib boradi. Jadid adabiyoti

davrida ham ayol obrazi jadid g'oyalarini yoyishda faolligi bilan ajralib turganligini e'tirof etish o'rinli albatta.

Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Maysaraning ishi" asaridagi Maysaraning ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashga o'tlanishi va ma'lum darajada tor doirada bo'lsa-da adolat qaror topishiga erishishi yoki adibning yana bir asari "Jaholat qurbonlari"dagi Maryamxonning o'z baxti uchun ijtimoiy xurofiy tartibga qarshi kurashga chog'lanishi va jismonan halok bo'lsa-da ma'nan murodiga erishishi ham shunga misoldir.

XX asrning boshlaridagi nasriy asarlarda ayol obrazi endi tom ma'nodagi teng huquqli asosiy qahramon darajasiga yetishdi. Buning yorqin misoli sifatida birinchi o'zbek romani hisoblanmish Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi Kumush obrazini keltirish mumkin. O'zbek adabiyotida ayol obrazi bu romanga qadar bunchalar yorqin va samimiy yaratilmaganligini uni o'qigan har bir kitobxonning o'zi amin bo'lishi tabiiy. Shunchalar dilbar yaratilgan bu obraz orqali o'sha davrning ijtimoiy muhitida turib bo'lsa-da o'zining sevgan insoni uchun o'z hayotini xatarga qo'yib, xon saroyiga adolat talab qilib kirib borgan jasoratli ayolni ko'ramiz. Qo'lidagi muhim dalilni eltib berishi bilan o'zining yorini va otasininig hayotini saqlab qolishga, ma'lum darajada bo'lsada adolatning qaror topishiga o'zining hissasini qo'shishi tasvirlanadi. Roman badiiy g'oyasininig dinamikasida muhim rol o'ynaydigan yana bir yorqin ayol obrazi bu O'zbek oyim bo'lib, uning hatti-harakatlari tufayli asardagi shuncha voqealar yuzaga keladi. Jamiyatga ayolning ta'siri masalalalari yozuvchi tomonidan o'zining badiiy tahlili yoritiladi. Ikkinchi darajali obrazlar qatoriga kiruvchi yana bir ayol obrazi bo'lgan Zaynab esa ijtimoiy turmushning tipik vakili sifatida talqiniga ega bo'ladi.

Shu singari "Mehrobdan chayon" romanidagi Rahno obrazi ham kitobxonda yorqin taassurot qoldira oladi.

Choʻlponning “Kecha va kunduz” asaridagi Zebi shular jumlasidandir. Asardagi asosiy voqelaar tizimi aynan shu obraz taqdiri bilan bogʻliq holda yoritib boriladi. Zebininig Akbarali mingboshining navbatdagi kichik xotini boʻlib oʻsha davr urf-odatlariga binoat borishi va uning u yerdagi koʻrgan jabru jafolari yozuvchining tiyrak qalamiga olinadi. Oxir oqibat Akbarali mingboshining xotinlarining nooʻrin hatti-harakatlari tufayli zaharlanib fojiali oʻlim topshidan boshlanadigan uning taqdiridagi azobli kunlar ham ayol matonatiga keltirilgan noyob chizgilar sifatida adabiyotida iz qoldirdi.

Jamiyatdagi ayolning oʻrni masalasi XX asr adabiyotining oʻziga xos adabiy muammolari sifatida koʻrinish ola boshladi. Buni Choʻlpon, Qodiriylarning boshqa qator nasriy janrdagi asarlarida uchratish mumkin boʻladi.

Bu anʼana Abdulla Qahhor ijodida boʻy choʻzadi. Uning mashhur “Sinchalak” qissasining bosh qahramoni boʻlgan Saida obrazi XX asrning 60-yillar adabiyotining yorqin obrazi sifatida adabiyotimiz tarixiga muhrlandi. Maʼlumki, sobiq shoʻro mafkurasiga maʼlum dajada labbay, deb javob beradigan bu qissa ayol kishilik jamiyatining muhim bir boʻlagi ekanligi badiiy taʼkid etiladi va bu qarashlar badiiy isbotlashga harakat qilinadi. Garchi asar voqealari real hayotiylikdan birmuncha uzoq badiiy toʻqimalarida sunʼiyliklar ochib sezilib tursa-da, ayol obrazining betakror namoyon boʻlganligini koʻrishi mumkin.

Eʼtibor qilinsa, XX asr adabiyotida ayol obrazisiz asarlar juda kam miqdorni tashkil etadi. Bularning barchasi ayol obrazinig badiiy asarning gʻoyaviy kompozitsiyasidagi ahamiyatini belgilab beradi, desak notoʻgʻri boʻlmas. Ayniqsa, tarixiy asarlarda buning yorqin ifodasini koʻramiz.

Masalan, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanda Zahiriddin Muhammad Boburning volidasi Qutlugʻ Nigor Oyimning obrazi asardagi bosh qahramonning ruhiy holatlarni inhikosini tasvirlab berishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

XX asrning 80-yillarda ayol mavzusi adabiyotimizda juda keng badiiy tadqiqi mavzusiga aylandi. Mustaqillikka erishishdan oldigi adabiyotimizda qator adabiy turlarda ayol eng faol qahramonga aylandi. Ijtimoiy o'zgarishlarga har doimo hozirjavob bo'lgan shehriyatda jafokash, mehnatkash ayol obrazlari turlicha darajada yaratila boshladi. Bularning ichida Halima Xudoyberdiyev she'riyatida badiiy tadqiq etilgan ayol obrazi chuqur ijtimoiy-siyosiy ahamiyati bilan yorqin ko'zga tashlanadi.

O'zbek nasrida Abdulla Qahhorning "fotihagini" olgan adib O'tkir Hoshimov ijodiy yo'sining negizini ayol taqdiri masalalari tashkil etadi. Buni uning dastlabki hikoyalaridan tortib, "Dunyoning ishlari" kabi qissalardan o'tib yirik romanlari bo'lmish "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" ida yorqin va betakor chizgilarida ko'ramiz.

Ayniqsa? o'zbek kitobxonida "Ikki eshik orasi" romanidagi Robiya, Qora amma singari betakror obrazlari jibiy jihatlari bilan chuqur taassurot qoldirsa, Ra'no singarilar salbiy kayfiyat uyg'otadi.

"Dunyoning ishlari" qissasidagi Ona (Eshon buvi) obrazi, "Ikki eshik orasi" romanidagi Qora amma obrazlari o'zbek onalari timsolida namoyon bo'ldi.

Ayolning kishilik jamiyatidagi ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi ahamiyatini badiiy tahlilga tortish XX asrning 80-yillari adabiyotida bosh mavzuga aylandi. Omon Muxtorning "Ayollar mamlakati va saltanati" romanidagi badiiy voqelik aynan shu masalaga bag'ishlanib, romanda butunlay ayollarning taqdiri xususida voqealar bayon etiladi.

Hozirgi adabiy jarayonda faol qalam tebratayotgan adiblarimiz ijodlarida ham ayol obrazi ijtimoiy muammolarning badiiy tadqiq etilishida eng ahamiyatli obraz sifatida o'z ifodasini topishi bilan xarakterlidir. Bunga yorqin misol sifatida Ulug' Hamdam ijodini ham olishimiz mumkin. "Muvozanat" romanida yaratilgan Zahro obrazi ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini tasvirlab berishda muhim ahamiyati bilan ko'zga tashlanadi. Uning

qator hikoyalarida ayol obraziga murojaat orqali badiiy g'oya harakatga tushishini kuzatamiz. Masalan. "Tosh" hikoyasidagi noma'lum "nozanin", "Uzoqdagi Dilnura"dagi Dilnura kabilar va hakazo.

Yana bir o'zbek adabiyotiningko'zga ko'ringan adibi hisoblanmish Erkin Ahzam ijoidagi ayol obrazi ham o'ziga xos jihatlari bilan e'tiborli. Adibning "Jannat o'zi qaydadir" kitobingizga kiritilgan har bir hikoya, kinoqissa va publitsistik maqola kitobxonlar, adabiyotshunoslar va barcha mutaxassislar tomonidan o'z bahosini oldi. To'plamga kiritilgan bir asar boshqalariga qaraganda ko'proq e'tiborini tortdi. Ya'ni "Zabarjad" kinoqissasi. Bu asardagi Zabarjad obrazi o'zbek adabiyotida yaratilgan o'zbek ayollari obrazidan farq qiladi. Chunki, adabiyotda "milliy o'ziga xoslik" degan tushuncha bor. Bunday o'ziga xoslik dastavval o'zbek adabiyotida ayol obrazini yaratishda ularning uyat, andisha, birovga bo'lgan muhabbatini oshkora ayta olmaslik, uning dilida kechayotgan tuyg'ularini faqat ishoralar orqali berish kabi tasvirlarda ko'rinadi. Zabarjadda esa bu tushunchalarning aksi. U uyatsiz, andishasiz ayol emas, lekin tuyg'ulariga erk bera olgan. Bu holatni o'zbek kitobxonining hammasi ham to'g'ri qabul qilishi qiyin. "Bayramdan boshqa kunlar"ni o'qigan bo'lsangiz, eslarsiz – Safura degan obraz bor, hayotda o'rnini topolmagan besaranjomroq bir qiz; hozir unaqasi sonmingta, dunyoning har yog'ida uloqib yuribdi – o'zicha baxtu omad axtarib. Xullas, ana shu qissa e'lon qilinganda yozuvchiga nisbatan – o'zbek xotin-qiziga tuhmat, degan ma'noda ta'nalar yog'diriladi. Holbuki, uni osmondan olib yo ichidan to'qib yozmagan. O'zbek xotin-qizi faqat Kumushbibini yoki Zeb-Zebonalar emasdir. Bugun u o'zgargan – oradan bir-bir yarim asr vaqt o'tdi-ku! Bugun u, kerak bo'lsa, o'sha serishva frantsuz xonimlariga ham dars beradi! Ko'chaga chiqing – ko'rasiz! Demak, milliylik ekan deb, ko'ra-bilaturib hayot haqiqatini siporishlab, andavalab ko'rsatish ham adabiyotning fazilati sanalmasa kerak. Qahramonni kitobxonlar mazaxo'rak bo'lib qolgan kechagi adabiyotdan emas, bugungi voqelikdan qidirsangiz – Zabarjaddan battarlari ham topiladi. Siz u

qizning ozroq shaddodligiyu “tuyg‘ulariga erk bergani”ni aytyapsiz, xolos. Fazilatlari-chi? Mardligu tantiligi-chi? Keling, sanab o‘tirmayin-da, bittagina savol beray: qissani o‘qib shu qizginani yomon ko‘rib qoldingizmi yoki uning biron qiligi sizga erish tuyuldimi? Ichki insoniy bir hurlikka intilish, bu yo‘lda odatdagi hisob-kitobdan qochib, birovning haqqu moliga ochiq ko‘z solmay, azbaroyi ko‘ngil mayliga, taqdir taqozosiga qarab ish tutish asnosida risoladan jinday chetga chiqmoq milliy tiynatni buzish sanalsa, bunda ayb Zabarladda emas, uni yozgan muallifda! Muallif esa Zabarladd qiz to‘g‘risida naql etayotib, o‘zbek kitobxoni bunga qanday qaraydi-qaramaydi – o‘ylab ham o‘tirgani yo‘q, ko‘nglida borini, ko‘rgan-bilganini yozganu qo‘ygan. Chunki u hayotdan va adabiyotdan xabardor ko‘zi ochiq kitobxonga ishonadi. Bu ishga biron bir g‘araz yoki g‘irromlik aralashmagan!

Shunday qilib, o‘zbek adabiyotida ayol obrazi o‘zining qadimiy tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan obrazlar sirasiga kiradi. Ma’lum bo‘ladiki, badiiy adabiyotdagi ayol obrazi o‘z ishtiroki bilan ijtimoiy-ma’naviy hayotning eng muhim masalalarini yuzaga chiqarishda, badiiy g‘oya asosini belgilab berishda muhim obrazlar sirasiga kirishi bilan e’tiborlidir.

IKKINCHI BOB.

PIRIMQUL QODIROVNING “ONA LOCHIN VIDOSI” ROMANIDA GAVHARSHODBEGIM OBRAZI TALQINI

1. Pirimqul Qodirovning ayol obrazini yaratish mahorati

Pirimqul Qodirovning ijodida ayol obrazlari yaratishi o‘ziga xos badiiy jilosi bilan ajralib turadi. Uning ijodiy yo‘cini sifatida ayol obrazlari asosiy voqealar tizimida muhim badiiy yechimni yuzaga kelishida faol ishtirok etadi. Adibning “Uch ildiz”, “Qora ko‘zlar” , “Olmos kamar”, “Qadrim”, Erk”, “Meros”, “Jon shirin” kabi asarlaridan tortib tarixiy romanlari “Yulduzli tunlar” (“Bobur”), “Avlodlar dovoni” (“Akbar va Xumoyun”) romanlaridagi yaratilgan ayollar obrazi o‘zbek adabiyoti obrazlar galareyasidan munosib o‘rin oldi.

Adibning dastlabki romani sirasiga kiruvchi “Uch ildiz”dagi Gavhar obrazi turg‘unlik yillari ma’naviy inqirozini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turishi. Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi Kumushning sevgi va sadoqat bobidagi xususiyatlarini esga solishi bilan ahamiyatlidir. Yozuvchi Qodiriy an‘analarini davom ettirib, bu romanda va boshqa bir qancha asarlarida yoshlar taqdirida chin sevgining nafasati va hayotbaxsh kuchini ochib berishga ahamiyat beradi. Gavharning Mahkamga bo‘lgan chin sevgisi ulug‘lanadi. Gavhar shunchaki oshiq-ma’shuq sifatida emas, ijtimoiy adolat uchun faol kurashchi sifatida tasvirlanadi.

“Qora ko‘zlar” romanida Hulkar, Jannatoy, Cho‘lponoy, Mahsuda singari obrazlar yaratiladi. Ular ichida Mahsudaning taqdiri “O‘tgan kunlar”dagi usta Alim hikoyasidagi uning mungli sevgilisining ayancli taqdiriga o‘xshashligi bilan e’tiborni tortadi. Guldek nozik, go‘dakdek sodda,

beg‘ubor Mahsudanig fojiaviy qismati haqidagi alam-iztiroblarga to‘la qissasi jaholat va ijtimoiy adolatsizlikga qarshi o‘tkir aybnoma, achchiq hayot sabog‘i kabi yangraydi.

Shuningdek, romanda Hulkar, Jannatoy, Cho‘lponoy kabilaning obrazlari mahorat bilan yaratiladi.

Pirimqul Qodirovning obraz yaratish borasidagi badiiy mahorati uning tarixiy mavzudagi asarlarida yorqin namoyon bo‘ladi. “Yulduzli tunlar” romanidagi temuriyzoda malikalarning obrazlari yozuvchining ijodiy kamolotining bir sifatida ko‘rinish oldi. Ayniqsa Qutlug‘ Nigor Oyimning obrazi asardagi eng chuqur ruhiy kechinmalar markazini hosil qila olishi bilan e’tiborga molikdir.

“Avlodlar dovoni” asari qahramonlari, saroy a’yonlari obrazlari, ularning tarixda tutgan o‘rni ustida so‘z borganda yana bir muhim jihatga e’tiborni tortmoqchimiz. Gap shundaki, har ikkala romanda ham boburiylar, binobarin, temuriylar sulolasiga mansub alomat ayollarning — tarixiy siymolarning obrazlari katta ehtirom, zo‘r mehr-muhabbat bilan qalamga olingan. Ayniqsa, Xonzodabegim, Hamidabonu obrazlari tarixiy romanchiligimizda muhim yangilik. Xonzodabegimning inisi Boburga cheksiz mehri, sadoqati, o‘z shaxsiy hayotini qurbon qilib, ko‘ngli tilamagan odam — Shayboniyxon shartiga ko‘nib, uning nikohiga o‘tib inisi hayotini qutqarib qolishi dostonlardagi ayol qahramonlar jasoratini eslatadi. Aslida bu hayotda chindan bo‘lgan hodisa! Yozuvchi Xonzodabegimning jasorat va fojialarga to‘la hayot yo‘lini realisgik bo‘yoqlarda mahorat bilan yorqin gavdalantirgan.

Yoshligidanoq jasur, tadbirkor, dono ayol sifatida tanilgan Hamidabonu Akbarning «daho shaxs» bo‘lib yetishuvida qanchalar zahmat chekadi. Bugina emas, Akbar shoh sifatida dovrug‘ qozongan kezlarda ham donishmand ona madad va maslahaglaridan doimo bahramand bo‘lib turadi... Umuman, bu xil tabarruk ayollarning davlat ishlariga va ilmu sanhat rivojiga qo‘shgan hissasi, qonli urushlarning oldini olish, uzoq joylarga elchi bo‘lib borish, bir necha bor

ota-bola nizolarini bartaraf etishdagi fidoyiliklari ifodasi romanning eng jozibador sahifalaridir.

Yozuvchi temuriylarga mansub bu xil yorqin shaxslar hayotiga «Ona lochin vidosi» asarida ham murojaat etgan, xususan Gavharshodbegim siymosini tarixiy haqiqatga tayangan holda yangicha talqin qilgan.

Pirimqul Qodirovning ayol obrazi yaratish mahorati uning soʻnggi asarlari sirasiga kiruvchi “Ona lochin vidosi” romansiga qadar shakllanib keldi. Oxir oqibat ushbu romanda asarning eng markaziy nuqtasi sifatida Gavharshodbegim taqdiri qoʻyilishi ham shundan dalolat berib turadi.

2. TARIXIY GAVHARSHODBEGINNING BADIY OBRAZ SIFATIDAGI TALQINI

Gavharshodbegim obrazi asardagi eng muhimi, badiiy gʻoyani yoʻnaltiruvchi xususiyatlari bilan boshqa obrazlardan ajralib turadi. Chunki, asardagi asosiy voqealar, yaʼni temuriylar saltanati osmonidagi qora bulutlar toʻplanishi bilan bogʻliq voqelar bilan boshlangan ushbu asarda Gavharshodbegim⁸ taqdiri markazda turadi.

Adib tomonidan Gavharshodbegim obrazi chuqur muhitni yoritilishi bilan yaratiladi.

Asar Gavharshodbegimning Amir Temur tomonidan kenja oʻgʻli Shohruhga munosib koʻrib tanlab olgani hodisalari davridan boshlab, uning fojiali oʻlimiga qadar hayotining iztiroblari temuriyzodalarning toj-taxt birodarkushlik urushlari barobarida yoritib beriladi.

“Taxtiravonda yolgʻiz oʻltirgan Gavharshodbegim xotiralarga beriladi. Ana, uning olovli yoshlish. Badavlat tarxonlar oilasida qazi-qarta yeb, qimiz ichib, chavandozlik mashqlarida chiniqib oʻsgan qiz juda tez voyaga yetadi. Unga Sohibqiron Amir Temurning nazari tushadi. Oʻn olti yoshlik Gavharshodni kenja oʻgʻli Shohruh Mirzoga munosib koʻradi. Oʻshanda Shohruh, Mirzo ham endi oʻn yetti yoshga kirgan, lekin harbiy yurishlarda toblanib erta ulgʻaygan, yigirma yoshlik yigitlardek kuchga toʻlgan devqomat oʻgʻlon edi. Gavharshodbegim u bilan avvallari ham koʻrishgan, dilida olovli hislar uygʻongan edi.

Toʻy boʻldi-yu, oradan uch oy oʻtmay Shohruh Mirzo otasining qoʻshinlari safida Isfaxon va Tabriz tomonlarga harbiy yurishga ketdi.

⁸ Gavharshod begim-CHigʻatoy amirlaridan boʻlmish Gʻiyosiddin Tarxonning qizi boʻlib, Sohibqiron Amir Temurning suyuqli kelini. U SHohruh Mirzoning katta xotini, Mirzo Ulugʻbekning onasi. Gavharshod begim saroyda temuriy shahzodalar tarbiyasi bilan shugʻullangan.-I.Yo.

Homilador Gavharshodbegim Samarqandda ekanida Kavkazning Qorabog‘idan, Amir Temurdan farmon keldi. Uvruk, deb ataladigan haram ahli barcha kelinlar bilan Saroy Mulk xonim boshchiligida ikki ming qo‘riqchi askar himoyasida Samarqanddan Tabrizga yetib kelishi buyurildi. Sohibqironning buyrug‘i so‘zsiz bajarilardi. Endi o‘n yettiga kirgan kelin ikkiqat ahvolda minglab chaqirim masofani yomg‘irli qor-qirovli sovuq kunlarda bosib o‘tib, hut oyida Tabriz yaqinidagi Sultoniya yetib borganini hozir eslasa o‘zining chidam-bardoshiga hayron qoladi. To‘g‘ri, mehribon qaynonasi Saroy Mulk xonim butun safar davomida unga g‘amxo‘rlik qilib bordi.”⁹

Yozuvchi Gavharshodbegimning nabirasi – Ulug‘bekning Barno Nigor xonimdan ko‘rgan o‘g‘li Abdullatif bilan bo‘lgan konfliktini dastlabki nuqtasini badiiy tadqiq etadi. Va bu konflikt asar davomida rivojlanib, kuchli qarama-qarshilikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Asardagi barcha voqealarning negizi ham aynan mana shu konfliktidan o‘rib kelishi badiiy dalillanadi. “Abdullatifning isyoni” bobida bu hodisa badiiy tasvirini topadi:

“Ulug‘bekning birinchi o‘g‘illari yoshligida o‘lib ketishgan, ulardan keyin tug‘ilgan Abdullatif amakivachchasi Alaudd,avlaga nisbatan bir necha yosh kichikroq edi. Bir chekasi shu sababdan Alauddavlaga o‘zini sal si olardi. Uning otasi Boysunqur Mirzo o‘ttiz uch yoshida ichkilikni ko‘p ichish oqibatida kasallanib vafotidan keyin farzand dog‘ida kuygan ona Boyqurmizoga juda o‘xshaydigan Alauddavlaga ko‘proq e’tibor bergan edi.

To‘qqiz-o‘n yoshlarida ular yog‘ochdan yasalgan qilich bilan bir-biriga shaq-shuq urib mashq qilishgan bo‘lsa, balog‘atga yetib, yigit bo‘lib qolgan kezlarda haqiqiy qilich bilan kuch sinashadigan bo‘ldi. Abdullatifning yoshi kichik bo‘lsa ham bilagida kuchi ko‘p, otalig‘i uni «qilichbozlikda sohibqiron bobokaloningizga tortgansiz» deb maqtaydi.

⁹ P Qodirov. Ona lochin vidosi.(Tarixiy roman).Toshkent. 2001. 2

Bir kun qilichbozlikdan mashq o'gkazayotganlarida Allaiddavlaning qo'lidagi qilichini Abdullatif chapdastlik bilan urib yerga tushirib yubordi. Qo'li qayrilgan Alaiddavla og'riq zarbidan ingrab, barmog'ining qilich kesib ketgan joyini chap qo'li bilan changalladi.

Shu voqeaning ustiga kelib qolgan Gavharshodbegim Alaiddavlaning barmog'idan qon oqayotganini ko'rdi-yu, qilich tutgan Abdullatifni jerkidi:

–Amirzoda, bunchalik beshafqatsiz!

– Uzr, noxosdan tig' tekkanini bilmay qoldim!

– Noxosdan emas, ataylab tig' urdingiz! — dedi Alaiddavla va momosiga yuzlandi. — Menga devonda katta lavozim berilgani uchun baxilligi kelib yurgan edi. Mana, alamini oldi!

– Baxil o'zingiz! — dedi Abdullatif ham achchig'lanib.— Mening otam Samarqand taxtida yigirma yildan buyon podshoh! Siz otangizning podshoh bo'lolmay ketganidan armondasiz! «Endi taxt navbati meniki, bobom meni valiahd tayin etgay, siz mening xizmaimni qilgaysiz!» deb maqtanib yuribsiz!

– Voy, beandisha! — deb Gavharshodbegim Abdullatifning so'zini kesdi. — Bu so'zlar Hoqoni Sayyidning kuloqlariga yetib borsa ne bo'lishini bibilurmisiz ? Halitdan toju-taxt dahvosini qilishga uyalmaysizlarmi?!

– «Valiahd bo'lurmen» deb dahvo qilgan erkatoyingiz-ku! — deb so'z qaytardi Abdullatif.

– Avvalo, siz chaqimchilik qilishdan uyaling!.. Ilkiga qilich urib yarador qilganingiz ustiga yana bunday beodob gaplar!.. Buning uchun Xoqoni Sayyid sizga jazo buyurmoqlari kerak!¹⁰

Keltirilgan to'qnashuv Abdullatifning kelajakda temuriylarni tanazzuliga olib g'arq etadigan olovning uchqunlanishi sifatida keltiriladi. Abdullatifning keyingi xatti-harakatlari romandagi Gavharshodbegimning iztirobli davrlarining boshlanishining debochasi sifatida qalamga olinadi:

¹⁰ Qodirov P. Ona lochin vidosi.(Tarixiy roman).Toshkent. 2001. 24-bet.

“Tug‘ilgan shahri Samarqandni sog‘inib, ota-ona mehrini qo‘msab yurgan, Hirotda o‘zini garovda ushlab turilganday sezadigan Abdullatif momosining so‘nggi gaplaridan qattiq xafa bo‘ldi va yig‘lamsirab o‘z ko‘shkiga qarab ketdi.

O‘sha kuni kechasi Abdullatif bo‘lgan voqeani Junaid Bo‘ta degan sirdosh bekiga aytib berdi-yu:

– Xo‘rlik bas, Samarqandga ketgaymiz! — dedi. – Shunday qahraton qishda... Amudaryodan qanday o‘tgaymiz?

– Bu yerda o‘gay bola bo‘lib yashash jonimga tegdi! Alauddavla o‘z tug‘ilgan shahrida, hamma unga mehribon. Samarqandga borsak, hazrat otam menga mehrini ko‘rsatib, bironta lavozim bermasmidi?! Axir sohibqiron bobom otamni o‘n bir yoshida Toshkentni Sayramlarga hokim qilib tayinlagan ekanlar-ku. Men o‘n yetti yoshdamen! Qachongacha momonga mutteh bo‘lib yurgaymen? Agar hazrat otangiz Toshkentnimi, Farg‘onanimi sizga bersalar... unda biz...

– Unda siz mening sohibixtiyor eshikog‘am, birinchi amirim bo‘lursiz!

Bunday katta lavozimlar oldida qish sovuqlari ham Junaid Bo‘taning ko‘ziga ko‘rinmay qoldi. Ikkovlari yo‘l tayyorligini ko‘rib, sodiq iavkarlaridan o‘ttiz kishini o‘tovdagi otlari bilan Hirotdan yashirincha olib chiqdilar-da, Samarqandga jo‘nab ketdilar.

Nevarasi Abdullatifning Samarqandga arazlab ketib qolganini eshitgan Shohruh, Mirzo Gavharshodbegim ni Bog‘i Jahonorodagi xonayi xosga chaqirtirdi.

— Siz nechuk Abdullatifni xafa qildingiz, begim? — deb qahr bilan so‘radi.

– Ne qilay, hazratim, Abdullatif Alauddavlaning ilkiga tig‘ uribdilar!

– Siz nuqul Alauddavla deysiz! Ulug‘bek sizga o‘gaymi? O‘g‘li arazlab borsa Ulug‘bek bilan oramiz buzilishi mumkinligini nechun o‘ylamaysiz?

Alauddavla halitdan toju-taxtga talpinarmish! Valiahd bo‘lmoqchi emish! Uni erka qilib hovliqtirgan siz emasmi?!

Hufyalar allaqachon hamma gapni oqizmay-tomimay Shohruh, Mirzoga yetkazganini sezgan Gavharshodbegim titroq qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib:

— Men, zaifangiz, ko‘ngli bo‘shlik qilgan bo‘lsam avf eting, — dedi. Bevaqt vafot etgan farzandimiz Boysunqur Mirzodan yodgor bo‘lib qolgan Alauddavlagaga mehr qo‘yganim rost. Lekin so‘zimga inoning, hazratim, Abdullatif bilan uning otasi Ulug‘bekka mening mehrim bundan ortiq bo‘lsa borki, kam emasdir!

— Kam emasligi... faqat og‘izdami yoki... amalda isboti bormi?

Bugun havo sovuq bo‘lgani uchun er-xotin ikkovi ham po‘stin kiyishgan, tashqarida qor yog‘ib, izg‘irin shamol esmokda edi.

— Agar... mening so‘zlarimga isbot talab qilinsa... Xo‘p, ijozat bering, hozir qish chillasi bo‘lsa ham, Samarqandga yo‘l olay. Onalik mehrim qandayligini Mirzo Ulug‘bek oldida isbot etay, Abdullatifni Hirotga olib qaytay!”¹¹

Asarda Gavharshodbegim zukko bo‘lish bilan birga mard va jasoratli ayol ekanligi dalillanib boradi. Bu ayniqsa uning Abdullatif Mirzodan kelajakda qanday xatarli ishlarni kutish mumkinligi xususida aytgan fikrlari tasdiqlaydi:

“Hirotidan Samarqandga qish kunida otliq borib kelish uchun sal kam bir oy vaqt ketar edi. Yoshi oltmishdan oshgan Gavharshodbegim bunday mashaqqatli safarga bardosh bera olarmikan? Kelinchakligida uning qanchalik go‘zal va shijoatlik ayol bo‘lgani Shohruhning esiga tushdi:

•— *Hali ham yigirma yoshdagi g‘ayratlaringizdan bor ekan-da, begim?*

Farzand mehri yoshga qaramas ekan, hazratim. Men to‘ng‘ich o‘g‘limiz Ulug‘bekni juda sog‘inib yuribmen. Ammo nevarimiz Abdullatifning fehli

¹¹ P Qodirov. Ona lochin vidosi.(Tarixiy roman).Toshkent. 2001. 26-bet.

yomon.

Halitdan toju-taxtga havasmand. Men ham buni sezib yuribmen. Bahzi Samarkand beklari Ulug‘bekning madrasada mudarrislik qilib, ilmi nujumga berilib ketganidan norozi. Ular Abdullatifni otasidan ko‘ra podsholikka munosibroq deb bilar emishlar. Maxfiy axborotlardan shuni bilganim uchun Ulug‘bek Mirzoning tinchini o‘ylab, Abdullatifni Hirotidan ketkazmay yurgan edim. Rost, Abdullatif Ulug‘bek uchun ham xatarli.

– Ruxsat bering, men borib uni qaytarib olib kelay! —dedi Gavharshodbegim . Xonayi xosda ikkovlari o‘ltirgan edilar. Yo‘g‘on gavdalik Shohruh, Mirzo ko‘zlari allanechuk yaltirab o‘rnidan turdi. Gavharshodbegim ham joyidan ko‘tarildi. Mayin soqol mo‘ylovi silliq tarashlangan barvasta SHohruh Mirzo hali ham xipchabo‘y begimni mehr bilan bag‘riga bosdi-da, yuzidan, ko‘zidan o‘pdi:

– Mard ayolsiz, safaringiz bexatar bo‘lishi uchun neki zarur bo‘lsa muhayyo qilurmiz!”¹²

“Gavharshodbegimning endigi orzusi — qonli urushlar boshqa bo‘lmasa, Sohibqiron davrida soni ikki yuz mingdan oshib ketgan qo‘shin uchto‘rt barobar qisqartirilsa, harbiy xarajatlardan ortib qolgan mablag‘lar hisobiga maktabu madrasalar, ko‘prik va rabotlar qurilsa, Shohruh Mirzo ham bunyodkorlik ishlariga moyil edi. Biroq urush-yurishdan boshqa narsani bilmaydigan zo‘ravon beklar va sipohilar ko‘shinini qisqartirishga qarshilik ko‘rsatib isyonlar qilishdi.

Bu isyonlarni bostirish uchun yana qurol ishlatishga to‘g‘ri keldi.

Dehqonu hunarmandlar, olimu quruvchilar, mamlaning barcha madaniy kuchlari urushsiz yasholmaydigan jangarilarga qarshi kurashda Shohruh Mirzoni qo‘llab-quvatladilar. Shohruh, Mirzo va Gavharshodbegim o‘g‘illarini ham bunyodkorlik ruhida tarbiyalagan, ularning har biriga yaxshi ko‘rgan

¹² O‘sha kitob.27-bet. (Misollarning barchasi shu kitobdan bo‘lganligi sababli keyingi o‘rinlarda kitob beti misol so‘ngida qavs ichida berib boriladi.).

ilmiy- ijodiy ishini qilish uchun imkon yaratgan edilar. SHu sababli o'g'illar ham doim ota-ona tomonida turdilar.

Ulug'bek Mirzo Samarqandda. Madrasa va rasadxona qurib, olimligini qildi. Uning inisi Ibrohim_Mirzo Sherozda ulkan shoir Sharafidadn Ali Yazdiyga homiylik qilib, sohibqiron bobosi haqida «Zafarnoma» kitobining yaratilishiga sababchi bo'ldi. Uchinchi o'g'il Boysunqur Mirzo Hirotda bosh vazir. U otasi nomidan barcha rassomlarga bosh bo'lib, Bog'i Safedda qurilgan ulkan qasrning ichiga ajoyib suratar chizdirdi. Hirotda Shohruh Mirzo nomiga bir Madrasa, Gavharshodbegim nomiga yana bir Madrasa qurildi.

Shohruh Mirzo va Gavharshodbegim bir yoqadan bosh chiqarib, hokimiyat jilovlarini mahkam tutganliklari, o'g'illarini insof va adolat ruqida tarbiyalaganliklari uchun to'rt o'g'ildan birortasi — na Ulug'bek, na Ibrohim, na Boysunqur, na Jo'qiy Mirzo —bir-biri bilan yovlashgan emas, ota-onalariga qarshi bosh ko'targanlari ham yo'q.

Bu o'g'illar qiyinchilik ko'rib o'sgan, harbiy yurishlarda mashaqqat chekib chiniqqan, tinch ijodiy mehnatning afzalliklarini amalda ko'rib bilgan edilar.

Ammo farovon zamonlarda ko'proq o'yin-kulgi, ayshu-ishrat bilan o'sgan Shohruhning nevaralari noahil, biri-biri bilan qirpichoq. Bu yoshlarda sarflanmagan kuchlar ko'p, ota-bobolari kabi katta g'alabalarga erishib tojdor bo'lish ishtiyoqida yonishadi.

Atroflaridagi amiru beklari tog'larga tarmashgan bulutlarga o'xshab ularning boshlariga taxtiparastlik balolarini yog'dirishadi.

«Davlat mablag'lari madrasa-yu, rasadxona qurilishlariga emas, harbiy yurishlarga sarflanishi kerak! Qilichlarimizni zang bosib ketdi! Jangovar bekdan ko'ra allaqayokdagi mullabachchalarning nufuzi baland!» deb vaysaydigan urushqoq amirlar ta'sirida yosh shahzodalar ham yangi harbiy yurishlarda qahramonlik ko'rsatib, katta martabalarga erishishni istashadi.”

(20-21-betlar)

Ko‘rinadiki, Gavharshodbegim temuriyzoda shahzodalarini tarbiyalashda oqilligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Adib shunday oqila ayol obrazini yaratish barobarida boshqa temuriyzodaning badniyat, uzoqni ko‘ra olmaydigan kaltabin xotinlari obrazini ham bu obrazga parallel ravishda tasvirlab boradi. Ularning temuriyzodalar o‘rtasidagi ziddiyatlardagi ayblarini fosh qila boradi.

“Ona lochin vidosi” romani ramziy nomlangan. Binobarin, u Lochin-qush haqida bitilmagan. Ammo, romanning yetakchi qahramoni Gavharshodbegim siymosida Ona Lochinga xos jasurlik, g‘ayrat-shijoat, kengliklari yuksakliklarni sevish, erkinlikka intilish, oilaparvarlik, bolajonlik, bag‘rikenglik singari xususiyatlar mujassamlashgan. Romanning nomlanishi Gavharshodbegimning Ulug‘bekka yozgan maktubida keltirilgan “Uyasidan ilon chiqqan Lochin” haqidagi rivoyatga asoslanadi.

“So‘ng hujraga qaytib, miz ustida turgan juzdondan qog‘oz, qalam oldi.

«Ko‘zimning oqu qarosi, buyuk o‘g‘lim Mag‘usiddin Muhammad Tarag‘ay, — deb yozar ekan, ko‘zlari yana beixtiyor yoshlandi: — Men sizni ko‘rib, bag‘rimga bosib jon bersam rozi edim. Maktubingizni o‘qiganimda yuzim necha bor ko‘z yoshlarimga yuvindi, ilojsizlikdan bag‘rim ezildi. Hozir mening har bir qadamimni xufiyalar kuzatib yuribdilar. Nevaram Alauddavla ketimga soqchi shaklidagi ayg‘oqchilarini qo‘ygan. Bog‘i Safeddagi xizmatchilarimni ham almashtirgan.

Agar men biror kun yo‘q bo‘lib qolsam, hammani oyoqqa turg‘izib, topib olurlar. Nechunki men Qirotning eng nufuzli Maxdi Ulyosi, sizning onangiz bo‘lganim uchun Alauddavlaga kerak emishmen. Bular bilurlarki, Hirotda men tursam siz onaga qarshi qo‘shin tortib kelishni o‘z shahningizga munosib ko‘rmagaysiz. Shu sababdan Alauddavla bilan uning atrofini o‘rab olgan noinsoflar meni garov kabi hech qayoqqa ketkazmay tutib tururlar.

Jurjondagi nevaram Abulqosim Bobur ham meni o‘z huzuriga chorlagan edi. Og‘a-inini yarashtirish maqsadida bormoqchi bo‘ldim. Lekin Alauddavla

shunga ham ruxsat bermadi. Men Abulqosim Bobur saroyida qolib ketsam inisining obro'si oshishidan qo'rkdi. Men nevaralarim tarbiyasiga shuncha kuch, vaqt sarfladim, ularga shunchalik mehrimni berdim. Oxirida ulardan bu qadar shafqatsizlik, oqibatsizlik ko'rganimdan ko'nglim vayron...

“Shoh o'g'lim Ulug'jon! Siz sohibqiron bobongizdek, marhum otangizdek mushkilotlar olovida toblanib fozil bir daho darajasiga ko'tarildingiz. Men o'ylar edimki, nevaralarimni yaxshi tarbiyalasam, ilmu amalga o'rgatsam, ota-bobolarining tajribasini dillariga singdirsam, ular ham sizlardek ulug' siymolar bo'lib yetishgay!

Ammo ona bergan tarbiya ozlik qilarkan. Har bir odamni hayot o'z xumdonidagi olovlari bilan pishiq g'isht kabi toblamasa, siz ming tarbiya berganingiz bilan xom g'isht xomligicha qolarkan, bir-ikki zarbadan uvalanib ketarkan. Nevaramiz Abdullatifning xomligidan foydalanib, ig'vogarlar Nishopurdan narida uning ilki bilan meni bandi qildilar. Hozir Alauddavlaning xomligidan foydalanib, zolimlar meni endi uning asoratiga solib qo'yidilar. O'z ahvolimga yig'laymenu, qayg'uli bir rivoyatni eslaymen.. Tog'da men kabi bir Ona lochin o'tgan ekan. O'ning uyasi yaqinida zaharli ilonlar yashar ekan. Ular xavf solganda lochin ilonlarni dumidan changallab osmonga olib chiqar ekanu, qoyatoshlar ustiga tashlab yuborarkan. Qolgan ilonlar tog' kamarlariga bekinib, lochindan qasd olishning yo'lini o'ylashibdi. Ona lochin har yili pana bir joydagi uyasiga tuxum qo'yib jo'ja ochar ekan. Ilonlar ham tuxumdan bola ochadi-ku. Lochin uzoqqa ov qilgani ketganda ilonlar sekin o'rmalab kelib, uning tuxumlarini yeyishibdi-yu, o'rniga ilonlarning tuxumidan qo'yib ketishibdi.

Bundan bexabar Ona lochin qo'ygan tuxumlariga vujudining haroratini berib, ularni bir necha kun bosib yotibdi. Vaqti soati yetib, tuxumlar teshilibdi, ichidan nimadir chiqa boshlabdilar. Ona lochin qarasa, tuxumlardan jo'jalar o'rniga ilonbachchalar o'rmalab chiqibdi. Bundan dahshatga tushgan Ona lochin chinqirib uyasidan ko'kka uchibdir. Ilonlarga yem bo'lgan avlodi bilan

vidolashib faryod chekkanda tog'lar larzaga kelibdir... Men ham mehrimni berib o'stirgan nevaralarimning yomonliklarini ko'rib, o'sha lochindek faryod chekkim, bu foniyl dunyo bilan vidolashgim kelur. Lekin... noumid shayton. Parvardigor biror joydan najot keltirur degan ilinjim bor. "Men-ku, yoshimni yashab, yetmishdan oshdim. Endi siz ehtiyot bo'ling, shoh o'g'lim. Bu nevaralarim jo'jxo'rozlardek yana ko'p urush-yurish qilsalar kerak. Sizdan iltimosim shulki, iloji boricha bularning urushlariga bormang. Hazrat otangizni eslang: Xalil Sulton bilan Pirmuhammadlar taxt talashib urushganlarida Xoqoni Sayyid arqonni uzun tashlab, ularning urushiga aralashmadilar. Oxiri yillar o'tib vaziyat yetilganda Samarqandni jangsiz oldilar. Siz otangizday vazmin va bardoshli o'g'ilsiz... Mening xudodan endigi tilagim shulki, to'rt mucham butun paytda xor-zor qilmay omonatini olsin. Ilohim farzand dog'ini boshqa ko'rmayin. Olim o'g'lim, shoh o'g'lim, parvardigordan kunu tun tilagim shulki, siz ketimda qoling. Agar bu gal ko'rishish nasib qilmasa, iloyo kelgusida siz bilan diydor ko'rishish menga nasib qilsin!» (69-70-betlar)

O'z ahvolidan yig'lab, qayg'uli rivoyat so'zlagan onaizor va qadimda tog'da yashab o'tgan Lochin taqdirida mushtaraklik mavjud. Qasd olishga shaylangan zaharli ilonlar makridan bexabar Lochin qalb harorati hamda ulkan umidlar bilan jo'jalar kutadi. Tuxumlaridan ilonbachchalar chiqqanida taqdir oldida ojiz va betadbir qolgan Lochin ilonlarga yem bo'lgan avlodi bilan vidolashib, chinqirib alamli faryod chekkanida tog'u toshlar larzaga keladi. Romanning yetakchi qahramoni ham mehr berib o'stirgan ayrim nevaralarining yomonliklari qarshisida faryod chekib, foniyl dunyo bilan vidolashishni istaydi. Ammo... noumid shayton. Yaratganning najotbaxshligiga bo'lgan umidvorlik ilinji unga ma'naviy-ruhiy kuch bag'ishlaydi.

Darhaqiqat, donishmand va mehribon momolar tarbiyasi Amir Temur avlodlari orasidan ulug' istehdodlar yetishib chiqishiga xizmat qiladigan bir anhanaga aylangan edi. Saroymulixonim tarbiyasida SHohruh Mirzo va

Ulug‘bek, Eson Davlatbegim rahnamoligida Bobur Mirzo kamol topganligining o‘ziyoq fikrimizni tasdiqlaydi. Ammo, nevaralarning toju taxt talashishlari, xususan Abdullatif padarkushligi hamda undan keyingi davrlarda boshlangan inqirozlarni Gavharshodbegim nomi bilangina bog‘lash durust emas. Abdullatifning fitnalar girdobiga tushib qolishini chuqur tahlil etgan yozuvchining bosh maqsadi o‘z tabiatidagi toju taxtga havasvandlik hamda g‘addor muhit ta‘sirida ilonning ishini qilayotgan shahzodalarning amallari qarshisida o‘zini mardona tuta olgan momo- Gavharshodbegim hamda onasi ilonlar asoratida qolganidan qalbi larzaga kelgan Ulug‘bek Mirzo siymolarini alohida muhabbat bilan chizish orqali tarixdan ibratli saboqlar chiqarishdir.

Gavharshodbegim shaxsi va u bilan bog‘liq faktlar, manbalar ziddiyatli fikr-qarashlardan xoli emas. Bizningcha, bu davr murakkabliklari bilan izohlanadi. Jumladan, jamiyat taraqqiyoti va uning rivojlanish qonunlarini antagonistik formatsiyalarga xos deb sinfiylik asosida bir yoqlama talqin etgan tarixiy materializm tahlilotiga tayanib izohlanganligi oqibatida O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” romanida Gavharshodbegim Shohruh Mirzo hukmronligi davrida boshqaruvni o‘z qo‘liga olib, saroyni badxohlarga to‘ldirib yuborgan, Hirotni fisqu fasod uyasiga aylantirgan, sayidlarni qatl qildirib, shahzodalar orasiga nizo tushirgan, ularni bir-birigagina emas, hatto o‘g‘ilni otaga qayoragan shaddod xotin, bemehr va bag‘ritosh enaga qabilida ardoqlangan ota tarzida ifoda etiladi.¹³ Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida esa Gavharshodbegim o‘z izmidan chiqqan bir farzandini ikkinchisining qo‘li bilan jilovlashni eng maqbul yo‘l sanagan shaxs¹⁴, B.Ahmedovning “Mirzo Ulug‘bek” badiasida tuqqan o‘g‘li Ulug‘bekni unchalik xushlamaydigan ona tarzida tasvirlanadi¹⁵

¹³ O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini”. Toshkent, 1994.26; 170-171-betlar

¹⁴ Maqsud SHayxzoda Mirzo Ulug‘bek Toshkent, 1991.100-betlar

¹⁵ B.Ahmedov Mirzo Ulug‘bek Toshkent, 100-betlar

Pirimqul Qodirov Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlahi sahdayn” asarida Gavharshodbegim ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshirgan “zamon bonusi, jahon malikasi” sifatida ardoqlanishi faktiga ijodiy yondashgan. Bundan tashqari, muallif qimmatli tarixiy manbalarda rivoyat tariqasida keltirilgan voqealardan psixologik bayon izlar ekan, ulug‘vor ranglarni topib, yagona badiiy muddaoga bo‘ysundirish yo‘lidan boradi. Tarixiy fakt ortidagi inson ma’naviyatiga diqqat qaratadi. Masalan, 1441 yilda Abdullatifning Gavharshodbegim dan arazlab, Samarqandga ketib qolgani, kelasi yil begimning o‘zi kelib, yalinib-yolvorib, uni Hirotga olib ketgani ma’lum¹⁶. O‘sha tarixiy faktning shaklinigina saqlagan yozuvchi Hirotga o‘zini garovda ushlab turilganday sezib, Samarqandga sog‘inib, ota-ona mehrini qo‘msab yurgan Mirzo Abdullatif momosining achchiq-tiziq gaplaridan qattiq ranjiganini psixologik dalillaydi. Tarixiy faktlar izchil bayonidan tiyilib, tarix haqiqatidan uzoqlashmagan holda unga ijodiy munosabatda bo‘ladi. Bu holni onasiga e’tiqodi balandligi, qolaversa, o‘zining buyuk avliyoga ehtiromi ramzi sifatida Ulug‘bekning Abdulxoliq G‘ijduvoni nomi bilan maqbara va madrasa qurdirishi, xalqning “Avliyo ona”ga ehzoz-ikromlari singari dalillar badiiy talqinida ham kuzatish mumkin.

Romandagi eng muhim nuqta sanalgan bu voqeadan keyingi tafsilotlar orqali Gavharshodbegim ning keksayib qolishiga qaramasdan Sohibqiron nasihatlariga amal qilgani holda temuriyzodalarning qudratiga putur yetmasligi, davlat tanazzulga yuz tutmasligi uchun qiyin safarga chog‘lanishi bu ayolning qanday mard va sabotli obraz ekanligini badiiy dalillaydi:

“O‘sha kuni Shohruhning buyrug‘i bilan Samarqandga chopar yuborildi va Gavharshodbegim ning yo‘lga chiqayotgani haqida Ulug‘bekka xabar qilindi.

¹⁶ O‘sha asar. 56-bet.

Gavharshodbegim qor bo‘ralab yog‘ayotgan sovuq kunda Hirotdan otliq jo‘nab ketdi. Shohruh Mirzo unga yuzdan ortiq qo‘riqchilar, xizmatchilar, kanizu navkarlar qo‘shib bergan edi. Begim ot ustida juda toliqsa yoki sovuqdan qiynalib qolsa uni atrofi kiygiz bilan o‘ralgan, ichi bir qadar iliq taxtiravonga olishardi. Sakkiz baquvat yigit taxtiravonning to‘rt tomonidan uzun dastalarini yelkalariga qo‘yib, ehtiyot bilan ko‘tarib borar edilar. Bunday holda tez yurib bo‘lmas, safar uzoqqa cho‘zilar, oxiri ko‘rinmaydigan poyonsiz yo‘llarda soatlar, kunlar juda sekinlik bilan o‘tar edi.

–sog‘inib yuribmen, — dedi. — Qadamjoylarni ziyoratqilib, kelinlarimni ko‘rib qaytgaymen!

Bu so‘zlardan yengil tortgan Abdullatif qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, momosiga minnatdorchilik bildirdi.

Ular ertasi kuni Buxoroga tomon yo‘l oldilar. Bu orda bir kun to‘xtab, Chashmayi Ayyubdan suv ichdilar, Bahoviddin Naqshband maqbarasini ziyorat qildilar.

Buxoro va G‘ijduvonda Ulug‘bek qurdirgan muhtasham madrasalar onasiga juda mahqul bo‘ldi. Gavharshod begim bundan besh yil oldin Hirotdan kelganda G‘ijduvonda bir kecha tunab o‘tgan, Abduholiq G‘ijduvoniya e‘tiqodi borligini aytgan:

– Bolam, Abduholiq G‘ijduvoniya Xizr Alayhisalom o‘zi tahlim bergan ekan! — degan edi. — Uning ustozlari avliyo Yusuf Hamadoni bo‘lgan. Abduholiq G‘ijduvoniya maqbaralarini obod qilsangiz boshingizga savob yog‘ilg‘ay!

Ulug‘beking o‘zi ham Abduholiq G‘ijduvoniya buyuk avliyo deb bilardi. Shuning uchun G‘ijduvonda uning piri bilan ulkan bir madrasa va maqbara qurdirdi.

Gavharshodbegim bu gal G‘ijduvonga kelganda madrasani ko‘rib behad quvondi. Ulug‘bek Abduholiq G‘ijduvoniya maqbarasi oldida onasi sharafiga jonlik so‘ydirdi, doshqozonlarda palov damlatib, minglab odamlarga xudoyi

osh tortdirdi. Buning hammasi uchun Gavharshodbegim o'g'lidan astoydil minnatdor bo'ldi. Ayollar odatiga binoan azonda oftob chiqmasdan oldin Abduholiq G'ijduvoniylar maqbarasiga ziyoratga kelib, tilovat qildi:

– Ilohim shu maqbarani qurdirgan o'g'lim Ulug'bekni parvardigor panohida asrasin, Hazrat Abduholiq G'ijduvoniylarning arvoxdari doim unga madadkor bo'lsin, nevaram Abdullatifga xudo insofu qanoat bersin, ota-bola doim bir-biriga mehru oqibatlik bo'lsin! — deb yuziga fотиha tortdi.”¹⁷

Asar asosan muallif bayoni usulida yuritilganligi uchun bayonchilik imkoniyati tufayli Gavharshodbegim haqidagi tafsilotlar to'la-to'kis berilishi ustuvorlik qiladi. Gavharshodbegim shaxsiga oid ma'lumotlar keltirib boriladi:

“– Samarqandga borguncha yana necha marta to'xtagan bo'lsalar, hamma joyda Gavharshodbegim ni «Mahdi Ulyo» — «Avliyo ona» deb ehzozlashar, xususan ayollar uning duosini olishga intilishar, begimning kiyimlariga tegib qolgan qo'llarini ko'zlariga surtib o'pishar edi. Samarqanddagi e'zoz-ikromlar bundan o'n chandon baland bo'ldi.” (34-b.)

Gavharshodbegimning taqdirida hukmdorga umr yo'ldoshi bo'lish baxti ham uzoqqa cho'zilmasligi barobarida uning ko'nglidan o'tkazgan izzatlar, kundoshlik azobi alamlaridan uning qaynotasi Buyuk Sohibqironga bergan so'zi ustuvor kelganligi tasvirlab beriladi. O'zining yorlik tuyg'ularidan Vatanning kelajagi haqidagi hukmdorning kelini sifatidagi burchi ustuvorligi keltirilish orqali ayoldagi sabot va matonat o'ziga xos kuylanadi. Buni ayniqsa o'n sakkiz yoshli Shohruh Mirzoga yigirma olti yoshar sobiq kelin ayasi Mulkat og'aning majburan nikohlab berganlarida Gavharshodbegim juda qattiq izzat chekdi, kundoshlik olovida kuyib o'rtanishlari bayon etiladi.

“ Gavharshodbegim Shohruh Mirzoning ko'z ochib ko'rgan suyuqlik xotini ekanligi Mulkat og'aga ma'lum edi. Shuning uchun Shohruh Mirzodan ortiqcha bir e'tibor talab qilmas...di.”(29-bet)

¹⁷ O'sha kitob. 34-bet

Ijod ma'suliyatini teran his etib, o'z-o'ziga talabchanlik bilan yondashgan Pirimqul Qodirov hayotiy muammolarni o'z qalb prizmasidan o'tkaza oladi. Insonni nafaqat o'z zamonasi, balki, taraqqiyotning ham mahsuli deb bilgani uchun yorqin tarixiy shaxslarni mo'htabar sanab, ular ruhiyatiga xos betakror va serjilo tuyg'ularni ifodalashga e'tibor qaratadi. Tarixiy romanda zamonaviylik bilan tarixiylikni uzviy tutashtira oladi.

Gavharshodbegim qalbida hammaga yetib ortadigan adoqsiz mehr-muruvvat mavjud. U ana shu tuyg'uni farzandlariga, nabiralariga yuqtirishni tilaydi. Bu ayolning ruhiy pokligi, tubsiz ma'naviyati, insoniy go'zalligi murakkab hayotiy ziddiyatlar silsilasida ochiladi. Pirovardida obraz tabarruk siymo sifatida tasvirlanadi. Demak, mazkur xarakter turli rakurslardan kuzatilib, roman syujetini harakatlantiruvchi, asarga yaxlitlik bag'ishlovchi qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Uning botinidagi yuksak umuminsoniy tuyg'u va g'oyalar ma'naviy-ahloqiy muammolar bilan bog'lanadi. Natijada, gumanizm romanning pafosi darajasiga yuksaladi.

Darhaqiqat, romanda yoshi oltmishdan oshsa-da, g'ayrat-shijoati so'nmagan Gavharshodbegim qish chillasi bilan qorli izg'irinda safar mashaqqatlariga bardosh topib, Hirotdan Samarqandga otliq yo'l oladi. Bir jihatdan, qalbida onalik mehri va farzand sog'inchi, ikkinchidan, mamlakat tinchligi masalasi ko'ngdalang turganida bu mard ayol uchun na keksalik, na yo'l azobi ahamiyat kasb etadi. Ardoqli o'g'il Ulug'bek ham muzlar ko'chib, bir-biriga zarb urilayotgan asov Amudaryodan xatarni pisand qilmay Gavharshodbegim kutayotgan chap qirg'oqqa o'tib keladi. Bebosh to'lqinlar katta-katta muz parchalarini kemaga olib kelib urganida, o'g'lining baquvvat yelkalariga suyanib alqayotgan ona va bundan mutaassir bo'lgan farzand holat-kechinmalari g'oyatda tabiiy tasvirlanadi. Momo qoshida ta'zimda turgan o'g'il va nevara, ularni aylanib-o'rgilib alqayotgan Gavharshodbegim insoniy munosabatlari kitobxon qalbiga ajib iliqlik olib kiradi.

Gavharshodbegim Ulug‘bekka maktub bitar ekan: “Ko‘zimning oqu qarosi, buyuk o‘g‘lim”,-deya iftixor tuygan, ayni paytda nevaralarining beoqibatligidan ko‘ngli ozurda bo‘lgan, boshiga tushgan g‘urbatu g‘ariblik ko‘rgiliklarini dushmaniga-da tilamaydigan, bag‘ri keng, mehr-shafqat sog‘ingan munis ona. Garovda saqlanganida ham qirg‘inbarot urushning yo‘lini to‘shishga tadbir topib, ruhan mardona tura olgan ayol. O‘g‘li Ulug‘bek dargohida yashamay, nevaralari bilan sarson bo‘lib yurgani uning qalbida so‘nmas armon bo‘lib qoladi. O‘g‘lini bag‘riga bosib vidolasha olmagan ona sovuq qabr toshini xuddi beshik kabi quchib, nola-afg‘onlar chekadi. Alouddavla va Abduullatif qilmishlaridan ko‘ngli vayron bo‘lsa-da, padarkush nevarani qatl etishga bosh qo‘sholmaydi.

Gavharshodbegim evaralar taqdiri uchun o‘zini javobgar sezadi. Abulqosim Bobur va Abdulla Mirzolar fojiasidan keyin qanotlari qayrilgan Lochin yanglig‘ o‘rtanadi. Ammo, butkul umidsizlanmaydi. U quvg‘inlardan zada bo‘lgan mahsum Alisherbek va Sulton Husayn kabi yangi avlodni qonli mojarolardan omon saqlashni Ollohdan tilagan muslima sifatida namoyon bo‘ladi. Ruhi tushib, vujudi bo‘shashgan lahzalarda ham oxiratga yorug‘ yuz bilan borish umididan mosuvo bo‘lmaydi. Abusaidning makru xiylalariga fatvo berishdan ko‘ra, haq yo‘lida jasoratu iymon bilan mardona o‘lmoqni afzal biladi. Ona yurtga Shohruh Mirzo bilan Ulug‘bek davridagi tinchlik, bunyodkorlik va farovonlik qaytib, adolat tiklanib,ilmu mahrifat yuksaladigan mahsud kunlar kelishiga nekbine ishonch bilan qaraydi.

Mirzo Ulug‘bek esa otasidan erta judo bo‘lganidan dili o‘ksik, Hirot ostonasidan turib uning qabrini ziyorat qilolmaganidan armonli mushfiq onasi diydoriga muntazir, uni himoyasiga olomaganidan qalbi o‘rtangan mehri daryo farzand. Podshohlik yukining zalvori, Yodgorning arlot, Hoji Sulton, Qora Bahodir, Abusaid Mirzodek hasadgo‘y va baxil kimsalar ig‘vosi, intihosiz nizolar, jangu jadallarga sabr-toqat hamda bardosh-matonat bilan chidagan

mardona inson. Odamiylikni saltanatdan baland tutgan qalbi mehr-shavqatga limmo-lim to‘la bezovta qalb sohibi. Jahongirlik dahvosida emas, balki jigarbandining fehlidan tashvishga tushib, ne-ne kechalarni bedor o‘tkazgan ota. Tarixning achchiq saboqlaridan ibrat chiqarguvchi tengsiz vatanparvar olim. Behuda halok bo‘lgan jangchilar ruhi oldida vijdoni azoblanuvchi sarkarda. Foni dunyo razolatlaridan to‘yib, mahyus tuyg‘ularga berilgan onlarida esa Parvardigor muruvvatidan umidvor, samoviy uyg‘unligu muvozanatga zarra kabi qo‘shilmoqni tilagan, taqdirga rizo bir banda sifatida ifoda etiladi. Farzandi arjumanli osmon jismlaridagi sobitlikdan, tartibu, muvozanatdan ibrat olishi, qalbini pokiza tuyg‘ular egalllashini tilagan Ulug‘bek unga mehru oqibatii munosib taqdirlangan “Javzo”, odamxo‘r devlarni butkul yo‘q qilib, inson zotini falokatdan asragan “Burgut”, “Hulkar” yulduzlari haqidagi mazmunida ilohiy hikmat mujassam rivoyatlardan so‘zlaydi. O‘g‘liga mamlakat olmoqdan ko‘ra, uni idora etmoq mushkulligini uqtiradi. Mirzo Abdullatifning hovliqma fehliyu telbaliklaridan kuch olgan zolim beklarning xoinligiyu isyonkorona xatti-xarakatlari qarshisida ham haqiqatga sadoqat, kelajakka ishonch, haqqa e‘tiqod bilan dadil harakat qila oladi.

Romanda Gavharshodbegim ning eng iztirobli – alamli holati sifatida uning o‘g‘li Ulug‘bek Mirzoning boshidan ajralgan tanasi ustidagi holatida namoyon bo‘ladi.

Roman nihoyasida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy singari Gavharshodbegim mehridan bahramand bo‘lgan lochinlar yangi uyg‘onish va yuksalish davriga asos solishadi. Tinchliksevar hamda bunyodkor kuchlarni o‘z atrofida jipslashtirib, tashqi tajovuz va ichki nizolarni bartaraf qilishadi. Ya’ni “lochin iniga qo‘yilgan ilon tuxumidan chiqqan ilonlardan yurtni tozalaydilar. Bu asardagi haloskor kuchlar timsolidagi Alisher Navoiyning qoraqayunlar bilan Xurosonga yurish qilgan Yodgor Mirzoga Gavharshodbegim ning aytib bergan rivoyati bilan izohlandi. Bu bilan

Gavharshodbegim ning orzu-intilishlari besamar qolmaganligini, uning lochinlari ilonlardan olamni tozalashlari rostligini badiiy dalilli sifatida keltiriladi:

“Husayn Boyqaro do‘stini xatarli ishdan qaytarmoqchi bo‘ldi:

–Siz shoshmang, Mir Alisher. Balki boshqalar..

Ammo boshqalardan sado chiqmadi. Shundan so‘ng:

– Mir Alisherga ijozat berdik, faqat eng botir navkarlardan yoningizga oling! — dedi.

To‘rt navkar Alisher Navoiyni o‘rtaga olib, marmar zinalardan tepalikka ko‘tarila boshladilar.

Alisherbek qilichining tosh zinalarga noxosdan urilib jaranglab ketmasligi uchun uning dastasidan mahkam tutib, baquvvat yigitlarga xos yengil harakatlar bilan qasrga chiqib bordi.

Yodgor Mirzo parqu to‘shakda mast uyquda yotgan edi. Ipak parda ortida bittagina shahm lipillab yonib turardi.

Po‘lat jarangidan uyg‘onib ketgan Yodgor Mirzo cho‘chib ko‘zini ochdi-yu, xobgohga qilich yalang‘ochlab kirgan notanish odamlarni ko‘rdi. Oqshom ichgan mayining kayfi bir lahzada tarqab ketdi. Bosh tomonida turgan qilichini olmoqchi bo‘lib qo‘l cho‘zganda Mir Alisher navkarlarga buyurdi:

– Tuting buni! Ilkini bog‘lang!

Qo‘li orqasiga bog‘langan Yodgor Mirzoni navkarlar ikki qo‘ltig‘idan tutib, pastda kutib turgan Husayn Boyqaroning oldiga olib tushdilar.

Bog‘i Zog‘on darvozalarini egallab, ichdan bekitgan Muzaffar barlos va boshqa beku navkarlar podsho turgan joyga yig‘ilib kelganda tong endi yorisha boshlagan edi. Husayn Bayqaro do‘sti Mir Alisherga yuzlandi:

Amir Nizomiddin Alisher, siz bugun botirlik namunasini ko‘rsatdingiz. Men siz bilan iftixor qilurmen. Amir Muzaffar barlos, sizdan va boshqa hamma beku navkarlardan minnatdormen!

Yodgor Mirzo ozariy tilda Husayn Boyqaroga arz qildi:

— Olampanoh, yetti yoshimda bani qoraqayunlilar olib gittilar. Yana unlar buraga olib kildilar. Xansi¹ aybim uchun elimni bag‘lamishlar?

– Nodon yigit, aybingizni bilmasangiz, men sizga buyuk momongiz Gavharshodbegim aytib bergan bir rivoyatni eslatay. Zaxarli ilonlar ona lochinning uyasiga ilon tuxumlarini qo‘yib ketgan ekan. Bu tuxumlardan dochin polaponlari o‘rniga ilon bachchalar chiqqanda ona lochin dahshatga tushib faryod chekkan ekan. Siz ham lochin uyasidan chiqqan ilon bachchaning ishini qildingiz. Xurosonni bosqinchilar oyog‘i ostiga tashlab toptatdingiz. Amir Hasan bekning ilkida qo‘g‘irchoq podsho bo‘lib xizmat qildingiz. Janob amirlar, ayting, bunday og‘ir gunoxdar uchun qanday jazo lozim?

– O‘lim! — dedi Muzaffar barlos.

Balki Ixtiyoriddin qalhasida hibsda saqlash kerakdir? — ikkilandi Husayn Boyqaro. — Har qalay, bu ham temuriyzodalardan...

– Xoqoni Mansur, siz buni «qo‘g‘irchoq podsho» deb to‘g‘ri aytdingiz, — arz qildi Mir Alisher. — Qo‘g‘irchoqning ipi qoraqayunlilar ilkidadir. Agar buni hibsda saqlasak, Amir Hasanbek qo‘g‘irchog‘ini ozod qilish bahonasida yana qo‘shin tortib kelgay. Qaytadan urush bo‘lg‘ay, behuda qon to‘kilgay.

Mir Alisherning uzoqni o‘ylab aytgan so‘zlari haq! — dedi Muzaffar barlos. — Yana urush olovida kuymaslik uchun qo‘g‘irchoq podshoning ipini bir yo‘la kesib tashlamoq darkor!

Ko‘pchilik amirlar shu fikrda bo‘lganliklari uchun Yodgor Mirzo o‘sha soatdayoq qatl etildi.” (234-bet)

Mamlakat obodligi va el-yurt farovonligi ularning asosiy maqsadiga aylanadi.

Mustaqillik yillarida romanchiligimiz yangicha badiiy tafakkur, uslub, dunyoqarash, tasvir imkoniyatlari hisobiga boyib bormoqda. Bu hol, birinchi navbatda, insonga munosabatni yangilash orqali jamiyat tafakkurini tozartirishga yo‘l ochishda namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, Pirimqul Qodirov

ham xalqimiz, ayniqsa yosh avlod dunyoqarashini yuksak milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida har tomonlama kamol toptirish, ularni vatanparvarlik hamda insonparvarlik tuyg'ularini ardoqlash ruhida tarbiyalash, tarixiy o'tmishimizni teran obrazlarda haqqoniy aks ettirish orqali milliy-estetik tafakkur taraqqiyotiga ulush qo'shishi yo'lida yangilashtirish otabobolarimiz yaratgan bebaho boyliklarni qayta idrok etish, tarixiy xotirani uyg'otishni talab etadi. Qushga qanot, vujudga libos nechog'lik zarur bo'lsa, taraqqiyot sari talpinayotgan inson va jamiyatga ma'naviyat shunday zarur bo'lib, ma'naviyat hamda taraqqiyotning uyg'unligi yaratuvchi kuchni yuzaga chiqaradi.

"Ona lochin vidosi" romanda asosan, ayolarning hayoti, muhabbati, qismati aks ettirilgan. Yozuvchi tarixiy shaxslarga o'z asarlarida ko'p murojaat etgan. Bir so'z bilan uni yozuvchining muhtarama ayollarimizga tuhfasini deyish mumkin. Kitobdagi asarlar shakli o'ziga xos, ohanglari rang-barang ekanligidan, o'quvchilar ko'nglida qiziqish uyg'otadi.

Pirimqul Qodirov xassos, noziktab, o'ziga xos yozuvchi. Uning asarlaridagi yetakchi xususiyatlar so'zdagi hissiyot tiniqligida, asar hujayralaridagi uyg'unlik va yaxlitlikda, qahramonlar va muallif tilining iusiqiy ranginligida, fikrlash madaniyatidagi jozibada ko'zga tashlanadi. Adib mahorati romanlarida yangi bosqichda ko'tarildi. Pirimqul Qodirov o'zbek adabiyotini barkamol romanlar bilan boyitdi. Bu romanlar davrning, zamonning muhim ijtimoiy, insoniy muammolarini haqqoniy ko'rsatish, qahramonlar hayoti va jonli xarakterlar pishiq va teran ishlanishi jihatidan o'ziga xos.

Pirimqul Qodirov Abdulla Qahhorning shogirdi. Uning ijodini ilmiy jihatdan ham chuqur o'rgangan. Ustozning shogirdiga ham inson, ham yozuvchi sifatidagi ta'siri kuchli. Shu ma'noda Pirimqul Qodirov birorta asarida hayot haqiqatiga zid ish tutmadi, mafkurabozlikka berilmadi, shaxsiy

manfaatlar yo'lida asarini kimlarningdir manfaatiga moslamadi. Aksincha, u romanlarida dolzarb va murakkab masalalarni birinchilardan bo'lib yoritdi.

Yozuvchi romanlarida qahramonlar harakatidagi kenglik va miqyosni ko'rsatishdan ko'ra, ular ruhiyatidagi nozik nuqtalargacha kirib borishga intiladi. So'z sehri bilan tuyg'ularni tilga kiritadi. Ularni bamisoli suratdagidek muayyan shaklga tushiradi.

X U L O S A

Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romani temuriylar haqidagi tarixiy asarlar sirasiga kirdi. Ammo uning e’tiborli jihatlaridan biri shundaki asarning markazida temuriyzodalargina emas, balki temuriyzoda malikalardan Shohruh Mirzoning xotini Gavharshodbegim obrazi turadi.

Pirimqul Qodirovning ijodida ayol obrazlari yaratishi o‘ziga xos badiiy jilosi bilan ajralib turadi. Uning ijodiy yo‘cini sifatida ayol obrazlari asosiy voqealar tizimida muhim badiiy yechimni yuzaga kelishida faol ishtirok etadi. Adibning “Uch ildiz”, “Qora ko‘zlar” , “Olmos kamar”, “Qadrim”, Erk”, “Meros”, “Jon shirin” kabi asarlaridan tortib tarixiy romanilari “Yulduzli tunlar” (“Bobur”), “Avlodlar dovoni” (“Akbar va Xumoyun”) romanlaridagi yaratilgan ayollar obrazi o‘zbek adabiyoti obrazlar galareyasidan munosib o‘rin oldi.

Yozuvchi temuriylarga mansub bu xil yorqin shaxslar hayotiga «Ona lochin vidosi» asarida ham murojaat etgan, xususan Gavharshodbegim siymosini tarixiy haqiqatga tayangan holda yangicha talqin qilgan.

Pirimqul Qodirovning ayol obrazi yaratish mahorati uning so‘nggi asarlari sirasiga kiruvchi “Ona lochin vidosi” romansiga qadar shakllanib keldi. Oxir oqibat ushbu romanda asarning eng markaziy nuqtasi sifatida Gavharshodbegim taqdiri qo‘yilishi ham shundan dalolat berib turadi.

Gavharshodbegim obrazi asardagi eng muhimi, badiiy g‘oyani yo‘naltiruvchi xususiyatlari bilan boshqa obrazlardan ajralib turadi. Chunki, asardagi asosiy voqealar, ya’ni temuriylar saltanati osmonidagi qora bulutlar to‘planishi bilan bog‘liq voqelar bilan boshlangan ushbu asarda Gavharshodbegim taqdiri markazda turadi.

Adib tomonidan Gavharshodbegim obrazi chuqur ruhitni yoritilishi bilan yaratiladi.

Adib tomonidan Gavharshodbegim obrazi chuqur ruhitni yoritilishi bilan yaratiladi.

Yozuvchi Gavharshodbegimning nabirasi – Ulug‘bekning Barno Nigor xonimdan ko‘rgan o‘g‘li Abdullatif bilan bo‘lgan konfliktini dastlabki nuqtasini badiiy tadqiq etadi va bu konflikt asar davomida rivojlanib, kuchli qarama-qarshilikni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Asardagi barcha voqealarning negizi ham aynan mana shu konfliktidan o‘sib kelishi badiiy dalillanadi. Asarda Gavharshodbegim zukko bo‘lish bilan birga mard va jasoratli ayol ekanligi dalillanib boradi. Gavharshodbegim ning endigi orzusi — qonli urushlar boshqa bo‘lmasa, Sohibqiron davrida soni ikki yuz mingdan oshib ketgan qo‘shin uch-to‘rt barobar qisqartirilsa, harbiy xarajatlardan ortib qolgan mablag‘lar hisobiga maktabu madrasalar, ko‘prik va rabotlar qurilsa, Shohruh, Mirzo ham bunyodkorlik ishlariga moyil edi. Ammo farovon zamonlarda ko‘proq o‘yin-kulgi, ayshu-ishrat bilan o‘sgan Shohruhning nevaralari noahil, biri-biri bilan qirpichoq. Bu yoshlarda sarflanmagan kuchlar ko‘p, ota-bobolari kabi katta g‘alabalarga erishib tojdor bo‘lish ishtiyoqida yonishadi.

Atroflaridagi amiru beklari tog‘larga tarmashgan bulutlarga o‘xshab ularning boshlariga taxtparastlik balolarini yog‘dirishadi.

Gavharshodbegim temuriyzoda shahzodalarini tarbiyalashda oqilligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Adib shunday oqila ayol obrazini yaratish barobarida boshqa temuriyzodaning badniyat, uzoqni ko‘raolmaydigan kaltabinlin xotinlari obrazini ham bu obrazga parallel ravishda tasvirlab boradi. Ularning temuriyzodalar o‘rtasidagi ziddiyatlardagi ayblarini fosh qila boradi. Ammo farovon zamonlarda ko‘proq o‘yin-kulgi, ayshu-ishrat bilan o‘sgan Shohruhning nevaralari noahil, biri-biri bilan qirpichoq. Bu yoshlarda

sarflanmagan kuchlar ko‘p, ota-bobolari kabi katta g‘alabalarga erishib tojdor bo‘lish ishtiyoqida yonishadi.

Atroflaridagi amiru beklari tog‘larga tarmashgan bulutlarga o‘xshab ularning boshlariga taxtiparastlik balolarini yog‘dirishadi.

Gavharshodbegim temuriyzoda shahzodalarini tarbiyalashda oqilligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Adib shunday oqila ayol obrazini yaratish barobarida boshqa temuriyzodaning badniyat, uzoqni ko‘raolmaydigan kaltabinlin xotinlari obrazini ham bu obrazga parallel ravishda tasvirlab boradi. Ularning temuriyzodalar o‘rtasidagi ziddiyatlardagi ayblarini fosh qila boradi. “Ona lochin vidosi” romani ramziy nomlangan. Binobarin, u Lochin-qush haqida bitilmagan. Ammo, romanning yetakchi qahramoni Gavharshodbegim siymosida Ona Lochinga xos jasurlik, g‘ayrat-shijoat, kengliklari yuksakliklarni sevish, erkinlikka intilish, oilaparvarlik, bolajonlik, bag‘rikenglik singari xususiyatlar mujassamlashgan. Romanning nomlanishi Gavharshodbegim ning Ulug‘bekka yozgan maktubida keltirilgan “Uyasidan ilon chiqqan Lochin” haqidagi rivoyatga asoslanadi.

Darhaqiqat, donishmand va mehribon momolar tarbiyasi Amir Temur avlodlari orasidan ulug‘ istehdodlar yetishib chiqishiga xizmat qiladigan bir anhanaga aylangan edi. Saroymulixonim tarbiyasida Shohruh Mirzo va Ulug‘bek, Eson Davlatbegim rahnamoligida Bobur Mirzo kamol topganligining o‘ziyoq fikrimizni tasdiqlaydi. Ammo, nevaralarning toju taxt talashishlari, xususan Abdullatif padarkushligi hamda undan keyingi davrlarda boshlangan inqirozlarni Gavharshodbegim nomi bilangina bog‘lash durust emas. Abdullatifning fitnalar girdobiga tushib qolishini chuqur tahlil etgan yozuvchining bosh maqsadi o‘z tabiatidagi toju taxtga havasvandlik hamda g‘addor muhit ta’sirida ilonning ishini qilayotgan shahzodalarning amallari qarshisida o‘zini mardona tuta olgan momo- Gavharshodbegim hamda onasi

ilonlar asoratida qolganidan qalbi larzaga kelgan Ulugʻbek Mirzo siymolarini alohida muhabbat bilan chizish orqali tarixdan ibratli saboqlar chiqarishdir.

Gavharshodbegim shaxsi va u bilan bogʻliq faktlar, manbalar ziddiyatli fikr-qarashlardan xoli emas. Bizningcha, bu davr murakkabliklari bilan izohlanadi. Romandagi eng muhim nuqta sanalgan bu voqeadan keyingi tafsilotlar orqali Gavharshodbegim ning keksayib qolishiga qaramasdan Sohibqiron nasihatlariga amal qilgani holda temuriyzodalarning qudratiga putur yetmasligi, davlat tanazzulga yuz tutmasligi uchun qiyin safarga chogʻlanishi bu ayolning qanday mard va sabotli obraz ekanligini badiiy dalillaydi. Asar asosan muallif bayoni usulida yuritilganligi uchun bayonchilik imkoniyati tufayli Gavharshodbegim haqidagi tafsilotlar toʻla-toʻkis berilishi ustuvorlik qiladi. Gavharshodbegim shaxsiga oid maʼlumotlar keltirib boriladi. Gavharshodbegimning taqdirida hukmdorga umr yoʻldoshi boʻlish baxti ham uzoqqa choʻzilmasligi barobarida uning koʻnglidan oʻtkazgan iztiroblari, kundoshlik azobi alamlaridan uning qaynotasi Buyuk Sohibqironga bergan soʻzi ustuvor kelganligi tasvirlab beriladi. Oʻzining yorlik tuygʻularidan Vatanning kelajagi haqidagi hukmdorning kelini sifatidagi burchi ustuvorligi keltirilish orqali ayoldagi sabot va matonat oʻziga xos kuylanadi. Ijod maʼsuliyatini teran his etib, oʻz-oʻziga talabchanlik bilan yondashgan Pirimqul Qodirov hayotiy muammolarni oʻz qalb prizmasidan oʻtkaza oladi. Insonni nafaqat oʻz zamonasi, balki, taraqqiyotning ham mahsuli deb bilgani uchun yorqin tarixiy shaxslarni moʻhtabar sanab, ular ruhiyatiga xos betakror va serjilo tuygʻularni ifodalashga eʼtibor qaratadi. Tarixiy romanda zamonaviylik bilan tarixiylikni uzviy tutashtira oladi. Gavharshodbegim qalbida hammaga yetib ortadigan adoqsiz mehr-muruvvat mavjud. U ana shu tuygʻuni farzandlariga, nabiralariga yuqtirishni tilaydi. Bu ayolning ruhiy pokligi, tubsiz maʼnaviyati, insoniy goʻzalligi murakkab hayotiy ziddiyatlar silsilasida ochiladi. Pirovardida obraz tabarruk

siymo sifatida tasvirlanadi. Demak, mazkur xarakter turli rakurslardan kuzatilib, roman syujetini harakatlantiruvchi, asarga yaxlitlik bag‘ishlovchi qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Uning botinidagi yuksak umuminsoniy tuyg‘u va g‘oyalar ma’naviy-ahloqiy muammolar bilan bog‘lanadi. Natijada, gumanizm romanning pafosi darajasiga yuksaladi.

Romanda Gavharshodbegim ning eng iztirobli – alamli holati sifatida uning o‘g‘li Ulug‘bek Mirzoning boshidan ajralgan tanasi ustidagi holatida namoyon bo‘ladi. Roman nihoyasida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy singari Gavharshodbegim mehridan bahramand bo‘lgan lochinlar yangi uyg‘onish va yuksalish davriga asos solishadi. Tinchliksevar hamda bunyodkor kuchlarni o‘z atrofida jipslashtirib, tashqi tajovuz va ichki nizolarni bartaraf qilishadi. Ya’ni “lochin iniga qo‘yilgan ilon tuxumidan chiqqan ilonlardan yurtni tozalaydilar. Yozuvchining bosh maqsadi o‘z tabiatidagi toju taxtga havasvandlik hamda g‘addor muhit ta’sirida ilonning ishini qilayotgan shahzodalarning amallari qarshisida o‘zini mardona tuta olgan momo-Gavharshodbegim hamda onasi ilonlar asoratida qolganidan qalbi larzaga kelgan Ulug‘bek Mirzo siymolarini alohida muhabbat bilan chizish orqali tarixdan ibratli saboqlar chiqarishdir.

Bu bilan Gavharshodbegimning orzu-intilishlari besamar qolmaganligini, uning lochinlari ilonlardan olamni tozalashlari rostligini badiiy dalili sifatida keltiriladi.

“Ona lochin vidosi” romanida asosan, ayolarning hayoti, muhabbati, qismati aks ettirilgan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, “Ona lochin vidosi” romanidagi ayollar orazi, xususan, Gavharshodbegim o‘zbek romanchiligida o‘lmas tarixiy obraz sifatida avlodlarni ma’naviy kamolotga yetishlarida tarbiyaviy ahamiyati sira eskirmaydigan obraz bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2009.
2. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q . Muloqot, 1998, 5 – son
3. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. 1999.
4. Boboyeva N. Pirimqul Qodirovning xarakter yaratish mahorati. Toshkent, 1972.
5. Yoqubov I. Pirimqul Qodirov romanlari falsafiy-estetik kontsepsiyasi. O'zbek tili va adabiyoti. 2009 1-son.
6. Yoqubov O. "Ulug'bek xazinasi".Toshkent, 1994.
7. Jalmatova Z. Urbanistik asarlarda mushtaraklik va o'ziga xoslik (Pirimqul Qodirov "Olmos kamar" romanining qiyosiy tahlili misolida). ND. Toshkent., 1999.
8. Karimova Yu. Izlanish quvonchi va tashvishlari Yetuklik (Maqolalar). Toshkent, 1982.
9. Karimova Yu. Erk jozibasi. Jizzax, 2004.
10. Qodirov P. Ona lochin vidosi. (Tarixiy roman). Toshkent. 2001.
11. Mirkasimova M. Janrovo-stilevie osobennosti uzbekskogo romana 70-80 godov (romani A.Yakubova i Pirimkul Qadirova) AKD. Tashkent, 1986,
12. Nosirov O'. Obrazlarda uslub jilolari. Toshkent, 1991.
13. Shayxzoda Maqsud. Mirzo Ulug'bek. Toshkent, 1961.
14. Shermuhammedov I. Pirimqul Qodirov (Adabiy portret). Toshkent, 1983.
15. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi.11-tom. Toshkent, 2005.